

# MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN TAVSIFI

**Ravshanova Madina Zafarbek qizi**

University of Business and Science

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21900113>

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida Vatan obrazining badiiy talqini va uning o'ziga xos poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida Vatan tushunchasining ona yurt, xalq, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ona tiliga bo'lgan muhabbat bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Muhammad Yusuf she'rlarida Vatan tasvirining samimiy, xalqona va sodda ifodalar orqali berilishi, shuningdek, shoirning yurtga muhabbat, milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishdagi badiiy mahorati tahlil etiladi. Maqolada Vatan obrazini yaratishda qo'llangan poetik vositalar, ramziy obrazlar va milliy-madaniy birliklarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Yusuf, Vatan, Vatan obrazi, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ona yurt, milliy ruh, poetik tasvir, lirik qahramon, badiiy talqin

**Kirish.** O'zbek adabiyotida Vatan mavzusi eng qadimiy va barqaror badiiy mavzulardan biri hisoblanadi. Mumtoz adabiyotdan tortib zamonaviy o'zbek she'riyatigacha bo'lgan ijodiy jarayonda ona yurt, xalq, milliy o'zlik, ozodlik va yurtga sadoqat masalalari turli badiiy shakllarda ifodalanagan. Ayniqsa, istiqlol davri o'zbek she'riyatida Vatan tushunchasining mazmun-mohiyati yangi tarixiy va ma'naviy sharoitda yanada kengaydi. Bu jarayonda Muhammad Yusuf ijodi alohida o'rin tutadi. Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatida sodda, samimiy va xalqona poetik uslubi bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida murakkab falsafiy fikrlar ko'pincha oddiy hayotiy obrazlar, xalqona iboralar va samimiy kechinmalar orqali ifodalanadi. Shoir Vatan haqida yozar ekan, uni uzoq va mavhum tushuncha sifatida emas, balki insonning kundalik hayoti, xotiralari, ota-onasi, tug'ilib o'sgan tuprog'i va milliy tarixi bilan bog'liq holda tasvirlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muhammad Yusuf ijodidagi Vatan obrazining muhim xususiyati shundaki, shoir yurtga bo'lgan muhabbatni balandparvoz chaqiriqlar bilangina emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ifodalaydi. Shu jihatdan uning Vatan haqidagi she'rlari samimiyligi va hayotiyliigi bilan o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shoir uchun Vatan - insonning o'zligini belgilaydigan ma'naviy makon. Shu sababli Vatan tasviri ona, ota makon, uy, tuproq, tog', qir, chinor kabi tushunchalar bilan bir semantik maydonda namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusiga bag'ishlangan asarlar orasida "Ulug'imsan, Vatanim" she'ri alohida ahamiyatga ega. Mazkur asarda Vatan tushunchasi xalqning ko'p asrlik tarixi, buyuk shaxslar, milliy qahramonlar va tarixiy fojealar bilan uyg'unlashtiriladi. Tadqiqotchilar ham ushbu she'rda Shiroq, Muqanna, Jaloliddin, Bobur, Navoiy, Temur Malik kabi tarixiy shaxslar hamda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir singari ijodkorlar taqdirining Vatan konsepti bilan bog'langanini qayd etganlar.

Demak, Muhammad Yusuf poetikasida Vatan tavsifi ikki asosiy qatlamda namoyon bo'ladi:

birinchisi - ona yurtning tabiiy va maishiy go'zalligi;

ikkinchisi - xalqning tarixiy xotirasi, milliy g'ururi va ma'naviy merosi. Mazkur maqolada ana shu ikki qatlamning badiiy uyg'unligi tadqiq etiladi.

Tadqiqotning asosiy manbalarini Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlari tashkil etadi. Tahlil jarayonida shoirning "Ulug'imsan, Vatanim", "O, ota makonim" va "Vatanim" kabi asarlariga murojaat qilindi. Mazkur she'rlar Vatan konseptining poetik ifodasi, obrazlar tizimi, tarixiy-madaniy birliklar va lirik qahramon ruhiyati nuqtayi nazaridan o'rganildi.

Tadqiqotda badiiy-estetik tahlil, lingvopoetik tahlil, konseptual tahlil, qiyosiy tahlil va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Badiiy-estetik tahlil orqali Vatan obrazining yaratilishida qo'llangan poetik vositalar aniqlandi. Lingvopoetik yondashuv asosida Vatan mazmunini ifodalovchi so'z va obrazlarning badiiy vazifasi o'rganildi. Konseptual tahlil orqali "Vatan" tushunchasining ona, tuproq, tarix, xalq va xotira kabi tushunchalar bilan semantik aloqasi ochib berildi. Shuningdek, she'rlardagi tarixiy shaxslar va tarixiy voqealarga murojaatlar kontekstual jihatdan tahlil qilindi. Bunda tarixiy nomlarning shunchaki ma'lumot berish vositasi emas, balki Vatan obrazining ma'naviy mazmunini chuqurlashtiruvchi poetik vosita ekaniga e'tibor qaratildi.

Asosiy qism. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan - ma'naviy makon vazifasini bajaradi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan tushunchasi keng semantik mazmunga ega. Shoir uchun Vatan inson tug'ilib o'sgan joy bilangina

chegaralanmaydi. U xalq, tarix, ajdodlar, ona til, milliy qadriyatlar va shaxsiy xotira bilan chambarchas bog'langan ma'naviy makondir.

“O, ota makonim” she'rida Vatan obrazining aynan shu jihati yaqqol ko'rinadi. She'rning boshlanishidayoq O'zbekiston “onajon o'lkam” tarzida tasavvur qilinadi. Bu murojaat Vatan va ona tushunchalarini bir semantik maydonga birlashtiradi. Ona qanday qilib farzand uchun mehr, himoya va tuganmas muhabbat timsoli bo'lsa, Vatan ham inson uchun shunday ma'naviy tayanch sifatida talqin qilinadi. Shoir Vatan go'zalligini yirik va dabdabali tasvirlardan ko'ra, xalqning kundalik hayotiga yaqin bo'lgan detallar orqali ifodalaydi. “Bedapoya”, “tandir”, “qo'zi”, “qirlar”, “tuproq” singari obrazlar Vatan tavsifining milliy koloritini ta'minlaydi. Natijada Vatan mavhum tushuncha emas, balki o'quvchiga tanish, yaqin va jonli makonga aylanadi. Demak, Muhammad Yusufda Vatan go'zalligi faqat uning tashqi ko'rinishida emas. Vatan go'zalligi uning inson xotirasidagi o'rnida, bolalik va ona tuproq bilan bog'langan hissiy qiymatida namoyon bo'ladi.

Muhammad Yusufning “Ulug'imsan, Vatanim” she'ri Vatan tavsifining tarixiy-falsafiy qatlamini o'rganish uchun muhim manbadir. Mazkur she'rda Vatan birgina zamonaviy hudud yoki davlat sifatida emas, balki asrlar davomida shakllangan milliy tarixning mujassam timsoli sifatida tasvirlanadi. She'rda Vatan turli poetik nomlar bilan ataladi: yorug' jahon, koshona, hamdard, hamxon, qo'riq, chinor, tumor kabi obrazlar Vatan konseptining turli semantik qirralarini ifodalaydi. Tadqiqotchilar ham ushbu she'rning tayanch poetik birliklari qatorida “Vatan”, “yurt”, “zamin”, “tuproq”, “quduq”, “chinor”, “tumor” kabi tushunchalarni ajratib ko'rsatganlar.

She'rning muhim jihatlaridan biri - tarixiy shaxslarning Vatan obraziga birlashtirilishidir. Navoiy, Yassaviy, Temur Malik, Muqanna, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Bobur kabi tarixiy shaxslar orqali xalqning tarixiy xotirasi jonlantiriladi. Ularning har biri Vatan tarixining muayyan qirrasini ifodalaydi. Masalan, Shiroq obrazi orqali yurt ozodligi yo'lidagi fidoyilik, Muqanna va Temur Malik obrazlari orqali qarshilik va jasorat, Navoiy va Yassaviy orqali ma'naviy meros, Bobur orqali esa Vatan sog'inchi va ayriliq motivlari kuchayadi. Shu tariqa tarixiy shaxslar alohida-alohida obraz bo'lib qolmay, yagona “Vatan” konseptining tarkibiy qismlariga aylanadi.

Muhammad Yusuf ijodining Vatan mavzusidagi she'rlarida xalqona til alohida ahamiyatga ega. Shoir murakkab falsafiy tushunchalarni xalq tiliga yaqin so'zlar bilan ifodalashga intiladi. Bu uning she'riyatini keng kitobxonlar ommasiga tushunarli va ta'sirchan qiladi. Vatan tavsifida “tuproq”, “tandir”, “qir”, “tog”, “chinor”, “qo'zi”, “uy”, “ota”, “ona” kabi so'zlarning qo'llanishi milliy-madaniy koloritni kuchaytiradi. Mazkur birliklar oddiy predmet nomlari bo'lish bilan birga, matn doirasida ramziy ma'no ham kasb etadi.

Masalan, tuproq–ona yurt va ajdodlar xotirasi; tandir–oila, xonadon va milliy turmush; chinor–uzoq umr, ildiz va avlodlar davomiyligi; tumor esa–muqaddaslik va himoya ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari Muhammad Yusuf ijodida Vatan konsepti ko'p qatlamli badiiy-estetik tizim ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, Vatan geografik makondan ma'naviy makonga aylantiriladi. Shoir uchun O'zbekiston hududi, uning tabiati va manzaralari insonning ruhiy dunyosi bilan birlashadi.

Ikkinchidan, Vatan va ona konseptlari o'zaro uyg'unlashadi. “Onajon o'lkam”, “onam”, “hamdardim”, “hamxonam” kabi murojaatlar Vatanga nisbatan mehr va yaqinlikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, Vatan obrazi tarixiy xotira asosida boyitiladi. “Ulug'imsan, Vatanim” she'rida tarixiy shaxslarning bir tizimda berilishi xalqning ko'p asrlik tarixini badiiy jihatdan mujassamlashtirish imkonini bergan. Mazkur xususiyat ushbu she'rning ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rganilishiga sabab bo'lgan.

To'rtinchidan, Vatan tavsifida milliy-madaniy birliklar muhim poetik vazifa bajaradi. Tuproq, tandir, qir, tog', chinor, tumor kabi obrazlar orqali Vatan milliy turmush va xalq mentaliteti bilan bog'lanadi.

Xulosa. Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusi shoir poetikasining muhim va mazmunan serqatlam yo'nalishlaridan biridir. Shoir Vatan obrazini tasvirlashda milliy tarix, xalq xotirasi, ona zamin, tabiat, oila va insoniy tuyg'ularni bir butun badiiy tizimga birlashtiradi. “Ulug'imsan, Vatanim” she'rida Vatan ko'p asrlik tarixni o'zida mujassamlashtirgan ulkan ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy shaxslar va millat fidoyilarining nomlari esa Vatan obrazining tarixiy asoslarini mustahkamlaydi. “O, ota makonim” she'rida Vatan ko'proq shaxsiy xotira, tug'ilib o'sgan tuproq, ona mehriga yaqin tuyg'ular orqali tasvirlanadi. “Vatanim” she'rida esa yurtga muhabbat milliy g'urur, tarixiy xotira va xalqning ma'naviy birligi bilan uyg'unlashadi.

## 1. Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2014.
2. Yusuf M. Ulug'imsan, Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
3. Karim B. Istiqloq adabiyoti: nazm va nasr. – Toshkent: Firdavs-shoh, 2021.
4. Ravshanova G. Muhammad Yusufning “Ulug'imsan, Vatanim” she'rida tarixiy shaxslar talqini // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, №7. – B. 480–483.
5. Umirzakova B. She'rda qanot qoqqan Vatan timsoli // Modern Science and Research. – 2023. – B. 127–130.

*Ravshanova Madina Zafarbek qizi*

This article analyzes the artistic interpretation of the image of the Motherland and its distinctive poetic features in the works of Muhammad Yusuf, a renowned Uzbek poet. The study examines the close connection between the concept of the Motherland and love for the homeland, people, national values, historical memory, and the native language in the poet's works. Particular attention is paid to the sincere, folk-oriented, and simple poetic expressions through which the Motherland is depicted, as well as to Muhammad Yusuf's artistic skill in expressing love for the homeland, national pride, and devotion. The article also examines the significance of poetic devices, symbolic images, and national-cultural elements used in creating the image of the Motherland.

**Keywords:** Muhammad Yusuf, Motherland, image of the Motherland, patriotism, national values, homeland, national spirit, poetic imagery, lyrical hero, artistic interpretation

---

## РУССКИЙ

### MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN TAVSIFI

*Ravshanova Madina Zafarbek qizi*

В статье анализируются художественная интерпретация образа Родины и его своеобразные поэтические особенности в творчестве известного узбекского поэта Мухаммада Юсуфа. Раскрывается тесная связь понятия Родины с любовью к родной земле, народу, национальным ценностям, исторической памяти и родному языку в поэзии поэта. Особое внимание уделяется тому, как образ Родины передаётся посредством искренних, народных и простых поэтических выражений, а также художественному мастерству Мухаммада Юсуфа в раскрытии чувств любви к Отечеству, национальной гордости и преданности родной земле. В статье также рассматривается значение поэтических средств, символических образов и национально-культурных элементов в создании образа Родины.

**Ключевые слова:** Мухаммад Юсуф, Родина, образ Родины, патриотизм, национальные ценности, родная земля, национальный дух, поэтический образ, лирический герой, художественная интерпретация

---